


A

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI**

**“TASDIQLAYMAN”**

G.Sh.Rixsiyeva

2025-yil



**SHARQ MAMLAKATLARIDA TIL VAZIYATI VA SIYOSATI  
(YAPONIYA)**


**FANINING O‘QUV DASTURI**

**Bilim sohasi:** 200000 – San’at va gumanitar fanlar


**Ta’lim sohasi:** 230000 – Tillar

**Mutaxassisliklar:** 70230101 - Lingvistika (sharq tillari)


Toshkent – 2025

Sharq xalqlari tillari va adabiyoti instituti direktori:  Mirzaxmedova X.V.

Yaponshunoslik oliy maktab boshlig'i

  
Xalmurzayeva N.T.

ARM boshlig'i

  
Yuldasheva M.M.

Fan/modul kodi ShMTVS 1204	O'quv yili 2025-2026	Semestr 2		ECTS - Kreditlar 4	
Fan/modul turi Majburiy	Ta'lim tili O'zbek/rus		Haftadagi dars soatlari 4		
1.	Fanning nomi	Ma'ruza (soat)	Amaliyot (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklam a (soat)
	Sharq mamlakatlarida til vaziyati va siyosati (Yaponiya)	24	24	72	120
<p style="text-align: center;"><b>I. Fanning mazmuni</b></p> <p>Fanni o'qitishdan maqsad – magistr talabalarni Yaponiyaning Meidzi davriga qadar va undan keyingi davrlardagi til vaziyatining o'ziga xos xususiyatlari, hozirgi davrda tilda yuz berayotgan jarayonlarni o'rganish hamda tilning rivojlanishi va o'zgarishiga ta'sir etadigan lingvistik va ekstralingvistik omillar haqida ma'lumot berishdan iboratdir.</p> <p><b>Fanning vazifasi</b> - tashqi omillarning til holatiga ta'siri hamda tilning lug'at tarkibidagi o'zgarishlarda gayraygo (o'zga tildan kirib kelgan so'zlar) va xushmuomila uslubdagi leksikaning qo'llanilishining rolini o'rganish hisoblanadi. Yapon tili lug'at tarkibidagi o'zlashgan so'zlarni ishlatilish yo'llarini ko'rib chiqish, ijtimoiy-siyosiy kataklizmalar davridagi holatini o'rganish ham ko'zda tutilgan</p> <p>Mazkur fan dasturi xalqaro tan olingan reytinglarda birinchi top 300 talik ro'yxatga kiruvchi Tsukuba universiteti<sup>1</sup> (University of Tsukuba ARWU 291), Nagoya universiteti<sup>2</sup> (Nagoya University ARWU 117) xorijiy tajribasini inobatga olgan holda takomillashtirildi.</p> <p style="text-align: center;"><b>II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)</b></p> <p style="text-align: center;"><b>III. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</b></p> <p style="text-align: center;"><b>2-SEMESTR</b></p> <p style="text-align: center;"><b>1-mavzu. O'rganilayotgan mamlakatda til vaziyati fanga kirish</b></p> <p>Mazkur kirish qismda Meidzi davriga qadar va undan keying davrlarda Yaponiyadagi til vaziyatining o'ziga xos xususiyatlari, hozirgi davrda tilda yuz berayotgan jarayonlarni o'rganish hamda tilning rivojlanishi va o'zgarishiga ta'sir etadigan lingvistik va ekstralingvistik omillar bilan</p>					

<sup>1</sup> [https://www.cegloc.tsukuba.ac.jp/page/page000295.html?utm\\_source=chatgpt.com](https://www.cegloc.tsukuba.ac.jp/page/page000295.html?utm_source=chatgpt.com)

<sup>2</sup> <https://nuss.nagoya-u.ac.jp/s/x4fSbpfSXibsW8t>

tanishtiriladi. Mazkur fanning vazifalaridan biri sotsiolingvistik omillarning til holatiga ta'siri hamda tilning lug'at tarkibidagi o'zfarishlarda gayraygoning rolini o'rganish, yapon tili lug'at tarkibidagi neologozatsiya jarayonini ko'rib chiqish, ijtimoiy-siyosiy kataklizmlar davridagi holatini o'rganish ham ko'zda tutilganligi haqida so'z yuritiladi.

## **2-mavzu. Tilning aloqa xususiyatlari**

Etnolingvistik va til vaziyatlari o'rtasida yaqin aloqa va o'zaro ta'sir mavjud. Til vaziyati mamlakatda istiqomat qiluvchi ma'lum bir etnoslar yoki ba'zi bir guruh etnoslarining o'zaro muomalasida qo'llaniladigan til tuzulmalarini tashkil etadi. Ichki etnik muomala odatda bir emas, balki bir qancha til tuzulmalari (dialekt, sheva, adabiy tillar) yordamida amalga oshiriladi. Qisqa qilib aytganda, etnoslar orasida xizmat qiluvchi til tuzilmalari ham ijtimoiy-funksional differentsiyaga uchraydi.

## **3-mavzu. Yapon tilining paydo bo'lishi<sup>3</sup>**

Mamlakatdagi til tuzilmalarining tarqalishiga ta'sir etuvchi etnik omillar va jarayonlardan tashqari, qator boshqa omillar ham mavjud bo'lib, ular til vaziyatlariga bevosita ta'sir etadi va ularni o'zgarishiga sabab bo'ladi. Bunday omillarga birinchi navbatda, til siyosati, ya'ni davlat, jamiyat tomonidan til vaziyatini saqlash yoki o'zgartirish uchun mavjud lingvistik mezonlarni barqarorlashtirish yoki o'zgartirish uchun qo'llanilgan chora-tadbirlar tizimi kiradi. Har qanday davlatda til siyosati birinchi navbatda o'zaro etnik muomala Yapon tilining paydo bo'lishida bir qancha jihatlarni mavjud.

## **4-mavzu. Til va ommaviy kommunikatsiya**

Zamonaviy yapon tili leksikasi turli xil uslubiy qatlamlari mavjud bo'lgan rang-barang manzarani o'zida namoyon etib, ular o'rtasidagi chegara ko'pincha ancha mujmal va noaniqdir. Yangi tuzilgan leksika sonini doimiy o'sishi faqat burungi vosita bilan yangi tushunchalarni ifoda etish zarurligi bilan emas, balki qator tashkilotlar va ommaviy kommunikatsiyalar tomonidan o'zlashtirilgan so'zlarni yapon so'zlariga o'zgartirish va so'z ishlatish turg'un mezonlarining yo'qligi bilan ifodalanadi.

## **5-mavzu. Zamonaviy dunyoda yapon tili**

Ikkinchi jahon urushidan keyin xitoy tilining o'rni ancha pasaydi, biroq yapon tili leksikasida avvalgidek xitoy tilidan o'zlashtirilgan juda ko'p so'zlar saqlanib qoldi. Yaponga AQSHning iqtisodiy va siyosiy ta'sirini

<sup>3</sup> [https://www.tsukuba.ac.jp/education/g-courses-g-tsukuba-tokyo/2021-2/pdf/21007.pdf?utm\\_source=chatgpt.com](https://www.tsukuba.ac.jp/education/g-courses-g-tsukuba-tokyo/2021-2/pdf/21007.pdf?utm_source=chatgpt.com)  
Kurs kodi: 0ABAG80

kuchayishi hamda boshqa ingliz tilida soʻzlashuvchi davlatlar bilan savdo aloqalarining kengayishi munosabati bilan ingliz tili keng tarqala boshladi: ingliz maktablari ochildi, qator oliy va oʻrta oʻquv yurtlarida darslar ingliz tilida olib borildi, radio va televideniya boʻyicha ingliz tilida eshittirishlar olib borildi.

#### **6-mavzu. Zamonaviy yapon adabiy tilining turli xil ogʻzaki hamda yozma variantlari**

Yapon adabiy tilining turli xil ogʻzaki hamda yozma variantlarining ishlatilishini faollashuvi, eng kam ishlatilishdan doimiy ishlatilishga oʻtish avvallari faqat kitobiy leksikaga kirgan va hozirda til dalili sifatida qayta paydo boʻlgan katta miqdordagi lugʻat birliklari uchun xarakterlidir. Biroq, zamonaviy yapon tilining lugʻat tarkibini toʻldirish va rivojlantirish jarayoni faqat xitoy omilining kuchayishi bilan chegaralanmaydi. Shu bilan parallel ravishda yapon lugʻat tarkibi, uning ichki manbalari asosida dinamik rivojlantirish jarayoni ham ketayapti.

#### **7-mavzu. Yapon yozuvining kelajagi haqida baxs – munozaralar**

Koʻp yillar mobaynida Yapon yozuvini asosiy tarkibiy qismi boʻlgan ierogliflarni sonini kamaytirish va yozilish shakllarini soddalashtirish haqida yapon olimlari tomonidan juda koʻp baxs-munozaralar oʻtkazilib kelinmoqda. Yozuv tizimini oʻzgartirish masalasi davlatining til siyosati darajasida bir necha marta koʻrilib chiqilishi ahamiyatga molikdir.

#### **8-mavzu. Zamonaviy yapon tilida “yangi dialekt”<sup>4</sup>**

Yapon tilida bir qancha dialektlar mavjud. Tokiyo dialekti, Okinawa dialekti, Kansai dialekti, Nohoku dialekti va boshqalar. Zamonaviy davrda tilning rivojlanishi zamonaviy yapon tili soʻz yasovchi zahiralardan keng koʻlamda foydalanish, mavjud dialektlar qoʻshilmasidan yangi dialektlar kelib chiqishi bilan xarakterlanadi.

#### **9-mavzu. Yapon tili dunyosida “Nazokatlilik” konsepti**

“Nazokatlilik” konsepti hurmat iboralarida insonlar bilan aloqadorlik, joy, tushunish, tarkib, shakl singari 5ta muhim omil mavjud boʻlib, bularning barchasi oʻziga hos rol oʻynaydi. Ayniqsa shular ichida insonlar bilan aloqadorlik va joy qisqa qilib aytganda “holat joyi”ga qaratilgan fikrlar oʻta muhimdir. Barcha hurmat iboralari, avvalo holat joyiga toʻgʻri kelishi haqidagi fikr bilan boshlanadi desak toʻgʻri boʻladi “o” va “go” hurmat

<sup>4</sup> <https://kdb.tsukuba.ac.jp/syllabi/2025/AE13B31/jpn/0> AE13B31 日本語方言論

formasi qo'shimchalari ishlatiluvchi so'zlar mavjud.

### **10-mavzu. Yapon tilida ayol va erkaklar nutqi**

Yapon tilida ayol va erkaklar tili gaplarning tugallash ohangi va gap oxirida keluvchi qo'shimchalarga bog'liq bo'ladi. Ayyolar tilida "va", "ne", "yoki" erkaklar tilida "dzo", "ka", "kai" kabi yuklamalar qo'llaniladi. Bundan tashqari ayollar tili va erkaklar tilida kishilik olmoshlari va fe'llarning hurmat shakllarining darajalari farq qiladi.

### **11-mavzu. Fan sifatida sotsiolingvistikaning mazmunini**

Jahon tilshunosligida sotsiolingvistikaning o'rni, fan sifatida yuzaga kelishi va takomil masalasi; Yapon sotsiolingvistikasining xususiyatlari, shuningdek, xitoy va g'arb sotsiolingvistikasining umumiy va o'ziga xos tomonlari haqida fikr yuritadi.

### **12-mavzu. Til vaziyati va siyosati tushunchasi, ularning o'zaro bog'liklik masalasi**

Til vaziyati va siyosatiga oid terminlar, ularning aloqadorlik masalalari, davlatning til bilan bog'lik farmon va qarorlari, til vaziyatini yuzaga chiqarayotgan ichki va tashqi omillar o'rganiladi

## **III. AMALIY MASHG'ULOTLARI BUYICHA KO'RSATMA VA TAVSIYALAR**

Amaliy mashg'ulotlarini tashkil etish yuzasidan kafedra tomonidan ko'rsatma va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Unda talabalar asosiy ma'ruza mavzulari bo'yicha olgan bilim va ko'nikmalarini amaliy masalalar, keyslar orqali yanada boyitadilar. Shuningdek, darslik va o'quv qo'llanmalar asosida talabalar bilimlarini mustahkamlashga erishish, tarqatma materiallardan foydalanish, ilmiy maqolalar va tezislarni chop etish orqali talabalar bilimini oshirish, mavzular bo'yicha tarjima ishlari, yozgan esselari taqdimotlarini tayyorlash, normativ-huquqiy hujjatlardan foydalanish va boshqalar tavsiya etiladi.

*Sharq mamlakatlarida til vaziyati va siyosati (Yaponiya) fani bo'yicha amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:*

1. Yapon tili radio va televideniya.
2. Yapon tilida hurmat kategoriyasi tusunchasi va klassifikatsiyasi
3. Yapon diskursida darajalarga qarab hurmat iboralarini qo'llash
4. Zamonaviy yapon adabiy tilining turli xil og'zaki hamda yozma variantlari
5. Zamonaviy yapon tilida "yangi dialekt"
6. Yapon tili dunyosida "Nazokatlilik" konsepti
7. Yapon tilida ayol va erkaklar nutqi

- 8.Yapon tilshunosligida sotsiologiyat
- 9.Yapon tilining xorijiy til sifatida murakkabligi
- 10.Yapon tili yozuvining o'ziga xos xususiyatlari
- 11.Zamonaviy Yaponiyada "Gayraygo"
- 12.Yapon tili muloqot etiketi

#### IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Sharq mamlakatlarida til vaziyati va siyosati fanidan mustaqil ishlar maqsadi:

- o'tilgan mavzuni chuqur o'rganishlari uchun darslik, o'quv materiallari bilan faol ishlash;
- ma'ruza, amaliy mashg'ulotlar va imtihonlarga oldindan tayyorgarlik ko'rish, vaqtdan unumli foydalanish;
- fan (modul)lar bo'yicha mustaqil ta'lim topshiriqlarini belgilangan muddatlarda taqdim etishi;
- mustaqil ta'lim topshiriqlarini bajarishda plagiat (ko'chirmakashlik)ga yo'l qo'ymasligi;
- kichik guruhlarda hamkorlikdagi mustaqil ta'lim topshiriqlarini bajarishda jamoaning umumiy maqsadiga mos harakat qilishi, o'ziga yuklatilgan vazifalarni o'z vaqtida bajarishi.

*Mustaqil ta'limni tashkil etishda fanning xususiyatini inobatga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:*

1. mavzu yuzasidan tahliliy ma'lumot (esse) tayyorlash;
2. badiiy-ijodiy ishni bajarish;
3. kurs ishi (loyihasi)ni bajarish;
4. aniq mavzu bo'yicha tahliliy taqdimot (prezentatsiya) tayyorlash;
5. berilgan muammoni keng tahlil qilish, unga ta'rif va xulosalarni berish;
6. amaliyotdagi mavjud muammoning yechimini topish, test, munozarali savollar va topshiriqlar tayyorlash orqali loyihalar ishlash ko'nikmasini shakllantirish;
7. ilmiy maqola, tezislar va ma'ruza tayyorlash;

**"Sharq mamlakatlarida til vaziyati va siyosati (Yaponiya)" fanidan mustaqil ish sifatida quyidagi mavzulardan berilishi tavsiya etiladi:**

1. Amaliy mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rish va uy ishlarini bajarish
2. Yapon va G'arbiy, Xitoy tillarining o'zaro ta'sir bosqichlari. Yapon tili vaziyati tarixi.
3. Yapon adabiyoti va yaponlarning madaniyati.
4. Tilning rivojlanishi va til tizimiga boshqa tillarning ta'siri masalasi.
5. Yapon tilida "gayraygo" o'zlashtirilgan so'zlarni moslashtirish muammolari.

	<p>6.Yapon tili leksikasini shakllantirishda sotsiolingvistik muammolar.</p> <p>7.Yaponiyaning 80-90 yillar siyosatining lingvistik oqibatlari.</p> <p>8.Yaponiya hukumatining Yapon tili yozuviga oid islohatlari</p> <p>9. Zamonaviy yapon tili yozuvi: ierogliflar va kana masalasi.</p> <p>10. Yaponiya jamiyatida hurmat shakllarining o'zgarishi va qo'llanilishi.</p>
3.	<p style="text-align: center;"><b>V. Ta'lim natijalari/ Kasbiy kompetensiyalari</b></p> <p><i>“Sharq mamlakatlarida til vaziyati va siyosati (Yaponiya)” fanini o'zlashtirish natijasida magistr:</i></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• Yaponiyadagi sotsiolingvistik vaziyat, etnik tarkibi va ularning tili, til vaziyati tushunchasi, til vaziyati turlari va ularning farqlari, etnolingvistik vaziyat; “til vaziyati” tushunchasi haqida, til vaziyati turlari va ularning farqlari haqida, til vaziyatining o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar, standart (davlat) va nostandart (nodavlat) tllar ijtimoiy xizmat doirasi, bilingvizm va polilingvizm, davlat tili tushunchasi, ya'ni o'rganilayotgan mamlakatda olib borilayotgan til siyosati, sotsium (jamo a'zolari)ning davlat tiliga munosabati, jamiyatda til vaziyatini xarakterlovchi omillar haqida bo'yicha tasavvur va <i>bilimga ega bo'lishi kerak;</i></li> <li>• Yaponiyadagi til vaziyatini me'yorga solishda til akademiyalarining o'rni, oav va televidenieng mamlakatdagi til vaziyatiga ta'siri, til vaziyatining rivojlanish tendensiyalarini, til vaziyatining rivojlanish omillari va tarixiy-madaniy sabablarini, o'rganilayotgan mamlakatning lingvo geografik va lingvo areal tavsifini, o'rganilayotgan mamlakat adabiy tilining maishiy-so'zlashuv tili va dialektlardan farqini, tilning lug'at tarkibini to'ldirishda qatnashadigan so'z yasovchi usullarini, o'qitilayotgan til lug'at boyligining o'sishida turli ilmiy tashkilotlarning o'rnini o'rganilayotgan mamlakatdagi til vaziyati bo'yicha ma'lumotlarni to'plash, tahlil qilish va tizimlashtirish <i>ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak;</i></li> <li>• <input type="checkbox"/> Yapon tilini tilni isloh qilish yo'lida olib borilgan harakatlar, ularning faoliyatiga umumiy baho berish, til vaziyatining o'zgarishi omillarini o'rganishda ilmiy-tadqiqot metodlaridan foydalanish, globallashuv sharoitida o'rganilayotgan sharq tilining umumiy holati bo'yicha kechayotgan o'zgarishlarni tushuna olish <i>malakalarga ega bo'lishi kerak.</i></li> </ul>
4.	<p><b>VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• ma'ruzalar;</li> <li>• interfaol keys-stadilar;</li> <li>• guruhlarda ishlash;</li> <li>• taqdimotlarni qilish;</li> <li>• jamoa bo'lib ishlash.</li> </ul>

5.	<p><b>VII. Kreditlarni olish uchun magistr:</b></p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish.</p>
6.	<p><b>VIII. ASOSIY VA QO'SHIMCHA O'QUV ADABIYOTLAR HAMDA AXBOROT MANBALARI</b></p> <p><b>Asosiy adabiyotlar</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Sugano R. Yaponiyada til vaziyati va siyosati. Toshkent. 2021</li> <li>2. Халмурзаева Н. Языковая ситуация Японии. Учебное пособие.Т.: 2009.</li> </ol> <p><b>Qo'shimcha adabiyotlar</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Mirziyoyev Sh. Hozirgi zamon va Yangi O'zbekiston. – Toshkent: O'zbekiston, 2024.</li> <li>2. Mirziyoyev Sh. Xalqchil islohotlar xalqimiz manfaatlariga xizmat qiladi 7-tom. – T., 2023.</li> <li>3. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekistonda taraqqiyot strategiyasi asosida demokratik islohotlar yo'lini qat'iy davom ettiramiz. 6-jild. - Toshkent: O'zbekiston, 2023.</li> <li>4. 北原/保雄, 問題な日本語—どこがおかしい?何がおかしい?, 大修館書店、2004年、P. 168</li> <li>5. 北原 保雄(著, 編集), いのうえさきこ(イラスト), 大修館書店、2005年、P. 178</li> </ol> <p><b>Scopus maqolalar</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Journal of Japanese linguistics// volume 40, issue 1, San Francisco State University, USA, 2024. <a href="https://discovery.researcher.life/article/asahi-yoshiyuki-mayumi-usami-and-fumio-inoue-handbook-of-japanese-sociolinguistics/bf51ee4eb4d53ea1884d99630f8e2287">https://discovery.researcher.life/article/asahi-yoshiyuki-mayumi-usami-and-fumio-inoue-handbook-of-japanese-sociolinguistics/bf51ee4eb4d53ea1884d99630f8e2287</a> (scopus)</li> <li>2. Von Heusinger, K., Schumacher, P.B., Discourse prominence: Definition and application, Journal of Pragmatics, <a href="https://doi.org/10.1016/j.pragma.2019.07.025">https://doi.org/10.1016/j.pragma.2019.07.025</a>(scopus)</li> </ol> <p><b>Axborot manbalari</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. <a href="http://www.ziyo.net">www.ziyo.net</a></li> <li>2. <a href="http://www.wikipedia.com">www.wikipedia.com</a></li> <li>3. <a href="http://www.scopus.com">www.scopus.com</a></li> <li>4. <a href="https://www.sciencedirect.com/search?qs=japanese%20language">https://www.sciencedirect.com/search?qs=japanese%20language</a></li> <li>5. <a href="https://langoal.com/minnano-nihongo-teaching-plan/overview.html">https://langoal.com/minnano-nihongo-teaching-plan/overview.html</a></li> </ol>

	<p>6. <a href="https://www.waseda.jp/inst/cjl/en/about/education/curriculum/">https://www.waseda.jp/inst/cjl/en/about/education/curriculum/</a>  7. <a href="https://www.cegloc.tsukuba.ac.jp/page/dir000674.html">https://www.cegloc.tsukuba.ac.jp/page/dir000674.html</a>  8. <a href="https://www.cegloc.tsukuba.ac.jp/page/page000350.html">https://www.cegloc.tsukuba.ac.jp/page/page000350.html</a>  9. <a href="https://nlb.ninjal.ac.jp/search/">https://nlb.ninjal.ac.jp/search/</a>  10. <a href="https://tsukubawebcorpus.jp/search/">https://tsukubawebcorpus.jp/search/</a>  11. <a href="https://kobetooyo-yousei.com/japaneselanguage-feature/">https://kobetooyo-yousei.com/japaneselanguage-feature/</a>  12. <a href="https://www.bunka.go.jp/seisaku/kokugo_nihongo/index.html">https://www.bunka.go.jp/seisaku/kokugo_nihongo/index.html</a>  13. <a href="https://www.youtube.com/watch?v=Ac7YCxrw0N8">https://www.youtube.com/watch?v=Ac7YCxrw0N8</a></p>
7.	<p>Fanning o'quv dasturi Yaponshunoslik oliy maktabi tomonidan ishlab chiqilgan va 2025 yil "16" 06 dagi 20-sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.  O'quv dasturi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Kengashining 2025 yil "18" 06 dagi 11 — sonli bayoni bilan tasdiqlangan.</p>
8.	<p><b>Fan/modul uchun ma'sul:</b>  Xalmurzaeva N.T– Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Yaponshunoslik oliy maktabi boshlig'i, Ph.D., dotsent</p>
9.	<p><b>Taqrizchilar:</b>  Gafurova X.Sh.– O 'zbekiston davlat jahon diplomatiyasi va siyosati universiteti dotsenti, Ph.D.  Ibragimova M.M. – O 'zbekiston davlat jahon tillari universiteti Yapon tili va amaliyoti kafedrasi katta o 'qituvchisi</p>